

YANGI O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI

Yorqulova Mohinur Shokir qizi

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish yo‘nalishi 2-
kurs talabasi*

“Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo‘lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o‘nta yaxshilik bo‘lib qaytadi”. Sh.Mirziyoyev

Anotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda hozirgi kunda ayollarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, gendr tengligi, milliyligimizning har yerda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z: Davlat byudjeti, rehabilitatsiya, Globallashuv, ommaviy madaniyat, mentalitetimiz, videoselektor.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta‘minlash, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sanalayotgan mazkur masalalarni hayotga tatbiq etish maqsadida joriy yilning 1-mart sanasida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berildi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. Muhim tashabbuslardan yana biri – xotin-qizlar huquqlarini hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratni o‘rnatish maqsadida Bosh prokuraturada alohida boshqarma tashkil etildi. Xotin-qizlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus jamg‘arma tashkil etilib, Davlat byudjetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi. Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo‘limlari tashkil etildi.

Gender tengligini jins tengligi ma‘nosida emas, balki huquqlardan foydalanishda erkak va ayolga teng imkoniyatlarni ta‘minlash ma‘nosida tushunish

mantiqan to'g'ri bo'ladi. Agar jamiyatda insonlar jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar qonunlarda berilgan huquqlardan bir xilda foydalana olish imkoniga ega bo'lsa, gender tengligi yuzaga keladi. Chunki fuqarolarga qonunlarda berilgan siyosiy, ijtimoiy, shaxsiy va boshqa huquqlardan ham erkak, ham ayol bir xilda foydalanishi kerak. Agarda qaysi bir jins vakili ayol yoki erkak bo'lgani uchun bu huquqlardan foydalana olmasa, shu joyda gender tengligi buzilgan hisoblanadi. Shu o'rinda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqidan iqtibos keltirish o'rinlidir "... meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko'p o'ylantiradi. Biz doimo "ayol – bu ona, oilamiz bekasi", deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart".

Darhaqiqat, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy sohalarida ayollarning rolini oshirishga qaratilgan islohotlar jadallik bilan amalga oshirib borilmoqda. Keyingi vaqtlarda davlat boshqaruv organlariga ayol rahbarlarni tayinlash, oliy ta'lim muassasalariga ayol kishini rektor qilish, ayol vazirlar va vazir o'rinbosarlari, ayol elchilar bo'lishi kabi tashabbuslar ilgari surilmoqda. Albatta, bunday tashabbuslar tahsinga sazovor va biz bularni qo'llab-quvvatlaymiz. Ammo masalaning boshqa tomonini ham e'tiborga olish zarur. Boshqaruv va ijtimoiy-siyosiy sohalarda shundayin ham kam sonli bo'lgan xotin-qizlarning professional bilim va tajribalarini hisobga olmay, ularning malakasini oshirmay lavozimga tayinlash kabi salbiy holatlar yuz berishining oldini olish, ya'ni xalq tilida aytganda, "qosh qo'yamiz deb, ko'z chiqarmaslik" kerak. Bu ishda shoshma-shosharlik bo'lmasligi kerak. Avvalo, ziyoli va olim xotin-qizlarimizning har bir soha bo'yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda tizimli tartibda tayyorlab borish institutini tashkil qilish lozim. Albatta, bu kabi masalalarni adolatli hal qilmay turib maqsadga erishib bo'lmaydi.

Globalashuv jarayonida ommaviy madaniyat tahdidlari mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash masalasida, ayniqsa, milliy qonun ijodkorlarining o'ta hushyor bo'lishlari talab etiladi. Chunki, bugungi kunda g'arb mamlakatlarida "gender tengligi" shiori ostida o'zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilayotgan guruhlar ham yo'q emas. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishim kerakki, biz avvalambor o'zbekimiz, bizda milliy ruh, milliy qadriyat, shaxsga nisbatan o'zaro hurmat, ayol kishining hamda erkak kishining bir biriga nisbatan munosabatida mutloqo tafovut va go'zal odob-axloq me'yorlari mavjud. Bizda g'arb davlatlari singari "ommaviy madaniyat" deb atab, turli xil odob-axloq me'yorlariga zid tushunchalarning kirib kelishi achinarli hol, "ota", "ona", "aka – uka", "opa – singil" degan, azaldan bular orasida o'zaro mehr - oqibat, hurmat tushunchalari bor. Shuning uchun ham chet elning gendr tegligi emas, balki mentalitetimizga mos gendr tengligi joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi (2019-yil 21-iyun). “Xalq so‘zi”, 2019-yil 22-iyun.
2. ”Xotin-qizlarning munosib o‘rni bor jamiyat yuksaladi” O‘rinov Telman Eshbayevich, O‘rinova Mariya Eshbayevna